

BIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI

Yashuzakova Nargiza Abdurashidovna

Samarqand shahar 42-umumta'lim maktabi 1-toifali biologiya o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada biologiya fanini o'qitishda ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari haqida fikr yurutilgan. Hozirgi ta'lim tizimida bilimlarni egallashning yangi kontsepedagogik texnologiyasi va biologiya fanini o'qitishda ta'lim samaradorligini oshirishda o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etishning yo'llari tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Noan'anaviy ta'lim texnologiyasi, kontsepedagogik texnologiyasi, axborot texnologiyalar, aqliy hujum, insert, klastef, venn diagrammasi, atamalar zanjiri,

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng, ta'limga et'ibor yanada oshdi. Hozirda zamonaviy ta'lim tizimidan foydalanilib, biologiya fanida zamonaviy ta'lim bu - darslarni noan'anaviy tarzda tashkil etish bo'lib, uning muhim belgisi aniq, natijali maqsadga erishishdir. Noan'anaviy ta'lim texnologiyasi an'anaviy ta'lim texnologiyasidan farq qilib, o'quvchilarning bilish imkoniyatlarini rivojlanishiga sharoit yaratadi, mustaqil ishlashlariga alohida e'tibor beriladi, bilish faoliyatlari izlanuvchan va ijodiy harakterga ega bo'ladi. Biologiyadan ma'lumki, ta'limni pedagogik texnologiyalar asosida takomillashtirish xususida ajdodlarimiz ham bir qancha izlanishlar olib borganlar. Sharqning buyuk allomalari Muso al-Xorazmiy, Ahmad al-Fargo'niy, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Mirzo Ulugobek kabi qomusiy olimlar o'z asarlarida maktab va madrasalarda insonni aqliy kamolotga yetkazishda o'qitishning turli usullari va vositalaridan foydalanishga katta ahamiyat berganliklarini ta'kidlab o'tishgan. Hozirgi ta'lim tizimida bilimlarni egallashning yangi kontsepedagogik texnologiyasi - noan'anaviy ta'lim texnologiyalarining uslublarini qo'llashni taqazo etmoqda. Noan'anaviy ta'lim texnologiyasi: Hamkorlikda o'rganish,

modellashtirish, tadqiqot(loyiha) texnologiyalariga bo‘linadi va u yaxlit uzviy tizim asosida olib boriladi. Pedagogik texnologiyaning asosiy tushunchasi, so‘zsiz, o‘quv jarayoniga tizim sifatida yondashishdir. Noan‘anaviy ta‘lim berish usuli ta‘limiy maqsadni amalga oshirish bo‘yicha ta‘lim beruvchi va ta‘lim oluvchi bilan hamkorlik faoliyatining asosi hisoblanadi. Usullar: ta‘lim oluvchi bilishi, udallashi va qadrlashi lozim bo‘lgan ko‘zlanayotgan natijalarga erishishni ta‘minlaydi. Bunda ta‘lim tarbiyada ishtirok etuvchi barcha narsa va hodisalar o‘zaro funksional bog‘liqda bo‘lib, bir butunlikni, ya‘ni pedagogik jarayon majmuini tashkil qiladi. Biologiya fanini o‘qitishda ta‘lim samaradorligini oshirish yo‘llarini tahlil etib o‘rganar ekanmiz. Biologiya mutaffakirlarimiz ta‘lim jarayonini samarali yo‘llarini tashkil etishni quyidagicha izohlashgan: Ibn Sino bolani maktabda o‘qitish va tarbiyalash masalasiga katta ahamiyat berib, «Tadbir ul manozil» asarining maxsus bo‘limini ana shu masalaga bag‘ishlagan. Kitobning «Bolani maktabda o‘qitish va tarbiyalash» bo‘limida bolani maktabga jalb qilish haqida to‘xtalgan. Uning ta‘kidlashicha, maktabga barcha kishilarning bolalari jalb etilishi va hamma bolalar birga o‘qitilishi va tarbiyalanishi lozim. Biologiyani o‘rganishda o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish uchun darsning o‘quvchilarning o‘tgan mavzu yuzasidan o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma va malakalarini aniqlash, ularni tizimlashtirish yangi mavzu yuzasidan o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalarni nazorat qilish va baholash, shuningdek, yangi mavzuni o‘rganist jarayonida lokal texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiq. Biologiyani o‘qitishda lokal darajadagi pedagogik texnologiyalardan “Keys”, «”Insert”, “Klastef”, “Venn diagrammasi”, “Aqliy hujum”, “Kichil guruhlarda ishlash”, “Atamalar zanjiri”, “Atamalar varag‘i”, tezkor o‘yinlar va o‘yin mashqlarning turli shakllaridan foydalanish tavsiya etiladi. Biologiya kursi mazmunidagi muammoli masalalarni o‘qitishda “Keys”dan foydalanish yuqori samara beradi. “Keys” - “case studies” ingliz tilidan olingan bo‘lib, jarayon yok vaziyat degan ma‘noni beradi. Dastlab bu texnologiyadan biznesmen va tadbirkorlarni o‘qitishd, foydalanilgan bo‘lib, hozirgi paytda o‘qitiladigan fanning mazmunidal kelib chiqqan holda, tirik organizmlarda boradigan jarayonlarning tashq va ichki, obyektiv va subyektiv omillari yuzasidan muammoli vaziyatlar yaratilib ulami hal etish uchun o‘quv munozaralari tashkil etiladi. Biologiyani o‘qitishda dastur

mazmunidagi evolutsion tushunchala yetakchilik qilgan, shuningdek, munozarali “o'simliklarning paydo bo'lishi va rivojlanishi”, “hayvonot olamining paydo bo'lishi va rivojlanishi” kabi mavzularni o'qitishda foydalanish mumkin.

Ta'lim-tarbiya jarayonida keysdan foydalanish uchun o'qituvchi:

- dastur mazmunidagi muammoli mavzularni aniqlashi, shu mavzularni o'qitish uchun muammoli savol-topshiriqlar tuzishi; .

- dars davomida muammoli savol-topshiriqlarning qiyinchilik darajasiga ko'ra yakka tartibda yoki o'quvchilarning kichik guruhlarida mustaqil ishlarni tashkil etilishini aniqlashi;

- o'quvchilarning bilish faoliyatini mazkur muammolarni hal etish, o'quv munozaralari orqali bahsda qatnashtirish yo'llarini rejalashtirishi;

- muammoli savol-topshiriqlar asosida tashkil etilgan o'quv munozaralarida yakuniy fikrni vujudga keltirishi lozim.

Dastur mazmunidagi faqat faktik materiallarni o'rganish nazarda tutilgan mavzularda Insertdan foydalanish tavsiya etiladi. Insert - lokal darajadagi pedagogik texnologiya bo'lib, o'quvchilar tomonidan o'quv materialidagi asosiy g'oya va faktik materiallarni anglashiga zamin yaratish maqsadida qo'llaniladi. O'quvchilarni Insert yordamida ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish uchun ularga o'rganiladigan o'quv materiallari va maxsus jadval tarqatiladi. O'quvchilar har bir jumlaning o'rganib chiqib, maxsus jadvalga muayyan simvollar yordamida belgilash tavsiya etiladi. Agar jumladan berilgan ma'lumot shu kungacha o'zlashtirgan bilimlariga mos kelsa, “Bilaman” - Y, agar ma'lumotlar tushunarli va yangi bo'lsa, u holda “Ma'qullayman” +, agar ma'lumotlar o'quvchilar o'zlashtirgan bilimlariga mos kelmasa, u holda “o'rganish lozim” -, o'quvchilar o'quv materiallarini o'zlashtirishda qiyinchilik his etsa, u holda “Tushunmadim” belgisini qo'yadi.

Mazkur texnologiyadan ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanishga bir necha usulda yondashish mumkin.

- o'quvchilar kichik guruhlariga ajratilib, guruh a'zolaridan kichik konsultant tayyorlanadi. Kichik konsultant unga berilgan topshiriqdagi atamalar asosida guruh a'zolarini kartochka vositasida baholaydi. Bunda o'quvchilar aytilgan atamalarning

izohini aytishi yoki izohga qarab atamani aniqlashi mumkin. Har bir to'g'ri javob uchun kartochka berilganligi sababli, kartochkalar soni ularning to'plagan balini belgilaydi. • o'quvchilarga bob va mavzular mazmunidagi tushuncha va atamalar ro'yxati beriladi. Ularning mazmuni va mohiyatiga ko'ra o'zaro mantiqiy bog'langan zanjir Klaster holiga keltirish talab etiladi. Ushbu yondoshuv ko'p vaqtni talab etsa-da samaradorligi yuqori bo'lib, o'quvchilarning mantiqiy fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi .

- “atamalar zanjiri”dan o'tgan mavzuni yakunlash qismida foydalanilganda o'quvchilarning kichik guruh a'zolaridan og'zaki holda atamalarni ketma-ket avalgilami takrorlagan holda mazmuni va mohiyatiga ko'ra o'zaro bog'liq holda yangi atama qo'shishi talab etiladi. Guruhning birinchi ishtirokchisi bitta atama bilan bosh lagani o'yin yakunida guruh a'zolari soniga teng atamalar zanjiri vujudga keladi. Ikkinchi bosqichda mazkur atamalarga ta'rif berish va ularni izohlash talab etiladi. Biologiyani o'qitishda tezkor o'yinlar va o'yin mashqlardan ham foydalanish muhim o'rin tutadi. Lokal darajadagi pedagogik texnologiyalar darsning muayyan qismida o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirib, ta'lim samaradorligini orttirishga xizmat qiladi.

Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi biologiya o'qituvchini tayyorlashda biologiya o'qitish metodikasi o'quv fani nihoyatda muhim o'rin tutadi. Bu o'quv fanini o'qitish jarayonida talabalarning biologiyani o'qitish uchun zarur kasbiy bilim, ko'nikma va malakalar shakllanadi. Tabiiydirki, o'quv fanida fan to'plagan hamma bilimlar emas, balki uning asoslari berqiladi. Ular o'qitish vazifalaridan, o'quvchilarning yoshi, tayyorgarlik darajasini e'tiborga olgan holda maxsus saralangan bilimlar o'quv qo'llanmasidan iborat. Fandan farqli ravishda o'quv fanining asosiy vazifasi bilim va ma'lumot berishdir. O'quv fani fanning aniq nusxasi emas. O'quv fanini yaratishda fan tomonidan to'plangan bilimlar va tajribalar tizimini talabalarga berish ustunlik qiladi. U faqat ilmiy ma'lumotlarni 10 to'plash tartibi emas, balki tushunchalarni umumlashtirish, aniqlashtirish, ilmiy faktlarni, fikr – mulohazalarni tartibga solishdan tarkib topadi. O'quv fani o'zining asosiy bilim va ma'lumot berish funksiyasidan kelib chiqqan holda ma'lum tartib asosida tuzilgan. Oliy maktab biologiya o'qitish metodikasi darsligi o'z tuzilishi va mazmuniga ko'ra fanga yaqinroq.

U o‘z tarkibiga ilmiy ma’lumotlardan tashqari fandagi ayrim munozarali masalalarni yechishga qaratilgan turlicha qarashlarni, xayotni topishda muvafaqiyatli yo muvafaqiyatsiz izlanishlarni ham o‘zida ifoda qiladi. Shu bilan bir qatorda ilmiy izlanishlar metodologiyasini, usullarini ham yaratadi. Biologiya o‘qitish metodikasi o‘quv fani talabalarni nazariy va amaliy jihatidan tayyorlash jarayonida faqat maktab biologiya kursining tuzqilishini bayon yetish cheklanmay, umumiy o‘rta va o‘rta maxsus kasb – hunar muassasalarida biologiya bo‘yicha o‘qitishning tashkil yetishni o‘ziga xos tomonlari bilan ham tanishtiradi, biologiya o‘qitish usullari, vositalarni qo‘llash bo‘yicha ko‘nikma malakalarni shakllantirishga hamda o‘quvchilar o‘zlashtirishi lozim bo‘lgan minimal bilimlar o‘quv qo‘llanmasini talablar tomonidan o‘zlashtirishga imkon beradi. Shu bilan birgalikda zamonaviy pedagogik, axborot texnologiyalarni qo‘llash, biologiya o‘qitishda innovatsion yondashish ko‘nikmalarni hosil qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://zenodo.org/records/5920046>

2. <https://e->

[library.namdu.uz/74%20%D0%9F%D0%B5%D0%B4%D0%B0%D0%B3%D0%BE%D0%B3%D0%B8%D0%BA%D0%B0%20%D1%84%D0%B0%D0%BD%D0%BB%D0%B0%D1%80/Biologiya%20o'qitish%20metodikasi%20o'quv%20qollanma.pdf](https://e-library.namdu.uz/74%20%D0%9F%D0%B5%D0%B4%D0%B0%D0%B3%D0%BE%D0%B3%D0%B8%D0%BA%D0%B0%20%D1%84%D0%B0%D0%BD%D0%BB%D0%B0%D1%80/Biologiya%20o'qitish%20metodikasi%20o'quv%20qollanma.pdf)

3. <https://e->

[library.namdu.uz/74%20%D0%9F%D0%B5%D0%B4%D0%B0%D0%B3%D0%BE%D0%B3%D0%B8%D0%BA%D0%B0%20%D1%84%D0%B0%D0%BD%D0%BB%D0%B0%D1%80/Biologiya%20o'qitish%20metodikasi%20o'quv%20qollanma.pdf](https://e-library.namdu.uz/74%20%D0%9F%D0%B5%D0%B4%D0%B0%D0%B3%D0%BE%D0%B3%D0%B8%D0%BA%D0%B0%20%D1%84%D0%B0%D0%BD%D0%BB%D0%B0%D1%80/Biologiya%20o'qitish%20metodikasi%20o'quv%20qollanma.pdf)